



# **TOSHKENT VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT**

*2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*

*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalarini tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda Hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*


*Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021-yil 1-noyabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.*



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga **tadbiq** qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- noyabr holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha  
2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

4




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-oktyabr oylarida)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar-oktyabr oylarida, birlikda)





# Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda)


Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **11,4 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish  
 ■ O‘rmon xo‘jaligi  
 ■ Baliq xo‘jaligi




# Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **12,1** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



**470**

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**8 859**

Ishlab chiqarish sanoati

**65**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

**191**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 9 585 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12,1 %ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 12,6 %ga (jami sanoatdagi ulushi 92,4 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 13,0 %ga (jami sanoatdagi ulushi 4,9 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 11,0 %ga kamaygan (jami sanoatdagi ulushi 0,7 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 0,5 %ga (jami sanoatdagi ulushi 2,0 %) kamaygan.

# Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **12,5 foizga oshdi**




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




**12,5 foizga oshdi**



## Mikrofimlar




## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




**14,9 foizga oshdi**



## Oilaviy korxonalar




**1,0 foizga oshdi**




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **12,5 foizga oshdi**




## Xususiy korxonalar





## Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3 946 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12,5 %ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 9,6 %ga (jami qurilishdagi ulushi 52,6 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 20,8 %ga (jami qurilishdagi ulushi 7,8 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 15,1 %ga (jami qurilishdagi ulushi 39,6 %) o'sishidir.

## Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 14 709 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 21,6 %ga oshdi.

Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 20,0 %ga (jami savdodagi ulushi 68,9 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 26,9 %ga (jami savdodagi ulushi 24,2 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan – 19,8 %ga (jami savdodagi ulushi 6,9 %) o'sishidir.



- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

# Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

10

• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

794



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

27



• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

26



## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



370

yashash bo'yicha xizmatlar



3 480


Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 3 850 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 17,0 %ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 15,9 %ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 90,4 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 27,6 %ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 9,6 %) o'sishidir.


# Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Oilaviy korxonalar soni (1- noyabrholatiga ko'ra, birlikda)

12



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra 5026 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 904 taga yoki 21,9 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 4 597 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 837 taga yoki 22,3 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 935 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 123 taga yoki 11,6 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.


## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra 37295 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 474 taga yoki 17,2 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 33702 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 252 taga yoki 18,5 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 5 210 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 98 taga yoki 1,8 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, 1 558 tani tashkil etib, ulardan 1 419 tasi yoki 91,1 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 132 taga yoki 9,3 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-oktyabr oylarida viloyatimizda 136 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-sentyabr oylarida, birlikda)



Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining  
qo'shma korxonaga va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi  
(2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonaga	xorijiy korxonaga
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>1558</b>	<b>755</b>	<b>803</b>
Oqqo'rg'on t.	18	7	11
Ohangaron t.	89	38	51
Bekobod t.	11	8	3
Bo'stonliq t.	73	37	36
Bo'ka t.	15	7	8
Quyichirchiq t.	49	27	22
Zangiota t.	204	95	109
Yuqorichirchiq t.	127	60	67
Qibray t.	165	81	84
Parkent t.	26	14	12
Piskent t.	20	11	9
O'rta Chirchiq t.	102	45	57
Chinoz t.	24	11	13
Yangiyo'l t.	86	33	53
Toshkent t.	87	52	35
Nurafshon sh.	67	29	38
Olmaliq sh.	54	15	39
Angren sh.	116	76	40
Bekobod sh.	26	16	10
Ohangaron sh.	48	22	26
Chirchiq sh.	85	51	34
Yangiyo'l sh.	66	20	46

## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini


va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Toshkent viloyati**  
**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**

**Tel.: (71) 202-86-83**